

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

MAVLONOVA MAVLUDA DAVUROVNA

INGLIZ TILIDAN O‘ZLASHGAN AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора филологии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Mavlonova Mavluda Davurovna

Ingliz tilidan o'zlashgan axborot texnologiyalari terminlarining leksik-
semantik xususiyatlari

Мавлонова Мавлуда Давуровна

Лексико-семантические особенности заимствованных из
английского языка терминов информационных технологий

Mavlonova Mavluda Davurovna

Lexical-semantic Features of Information Technologies Terms
Borrowed from English Language

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

MAVLONOVA MAVLUDA DAVUROVNA

**INGLIZ TILIDAN O‘ZLASHGAN AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2 PhD/Fil 865 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasining www.uswlu.uz hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sharipova Aziza Abdumanapovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qodirova Fazilat Shukurovna
filologiya fanlari doktori, dotsent (kengash a'zosi)

Kadirkbekova Durdona Xikmatullayevna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/.27.01 raqamli Ilmiy kengashning «_____» _____2024 yil soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9a mavzesi, 21-a uy. Tel.: manzil bo'yicha: (99871) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-91.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9 a mavzesi, 21-a uy. Tel.: manzil bo'yicha: (99871) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-91;

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «_____» _____kuni tarqatildi.

(2024 yil «_____» _____dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi)

I.Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
ped.f.d., professor

X.B.Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
filol.f.d., professor

J.A.Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahonda axborot texnologiyalari (AT) sohasi kun sayin jadal rivojlanib borayotganligi natijasida uning terminologik tizimi tobora yangi terminlar bilan boyib bormoqda. Tabiiyki, ayni terminlar dunyoning qator tillariga o'zlashtirilib, lug'at tarkibini boyitishga xizmat qilmoqda. Shunga ko'ra jamiyat hayotining barcha sohalariga AT keng joriy etilayotgan bugungi kunda tilshunoslikda AT sohasi terminlarining leksik-semantik, struktur xususiyatlarini o'rganish, ularning turli tillardagi maqbul tarjima variantlarini yaratish, soha terminlarining ko'p tilli izohli lug'atlarini tuzish hamda amaliyotga tatbiq etish asoslarini ishlab chiqish dorzarb masala hisoblanadi.

Dunyo tilshunoslari keyingi o'n yillikda AT terminlarining leksik-semantik, struktur, derivatsion xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratishmoqda. Ayniqsa, AT terminlarining jahon tillari tizimida xalqaro terminlar sifatida qo'llanishi, boshqa tillarga o'zlashtirilishi tamoyillari va qonuniyatlarini aniqlash terminshunoslikning muhim masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Shuningdek, AT terminlarini boshqa tillarga tarjima qilish texnikasini takomillashtirish, tarjima lug'atlarini yaratish uchun leksikografik annotatsiyalarni ishlab chiqish, ushbu soha terminlaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar yaratish ushbu yo'nalishdagi muhim vazifalar hisoblanadi.

Mamlakatimiz tilshunosligida so'nggi yillarda o'zbek tilining AT terminlari tizimini qiyosiy va chog'ishtirma aspektlarda o'rganish, o'zlashma terminlarning tarjima variantida imkon qadar o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolishga qaratilgan izlanishlar olib borilmoqda. Zero, respublikamiz hukumatining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori¹ kelajagimiz poydevorlari bo'lmish yoshlarning IT sohasini mukammal bilishlari, dunyo miqyosidagi dasturchilar bo'lib yetishishlari uchun terminlarni chuqur o'rganishlari va ularni amaliyotda qo'llay olishlari muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2019-yil 3-aprel kuni yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan 5 ta tashabbusni amaliyotga joriy etish masalalari bo'yicha o'tkazgan yig'ilishida "Besh tashabbus"ning uchinchi tashabbusi – aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish chora-tadbirlariga oid dastur doirasida Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining har bir yo'nalishi bo'yicha yangicha yondashuvlarni taklif etish, keng ilmiy izlanishlar olib borish bugungi kunning dolzarb masalalari ekanligini ta'kidlab o'tdi². Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi terminologik tizimi boshqa soha terminlariga nisbatan tez sur'atda yangilanish ko'rsatgichiga ega ekanligi inobatga olinsa, ushbu terminlarning o'zbek tiliga ingliz tilidan bevosita va bilvosita o'zlashish jarayonini, termin o'zlashtirishning lingvistik va ekstralingvistik omillarini aniqlash, o'zlashgan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.10.2020 yildagi PQ-4851-son

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2019-yil 3-aprel kuni o'tqazgan yig'ilishi nutqi

yangi AT terminlarining leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etish zarurat ekanligi ayon bo'ladi. Shu jihatdan ham ushbu muammo dolzarb va uning yechimi mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda termin, terminologiya masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar P.Nishonov, O.Ahmedov, X.Paluanova, D.Kadirbekova, A.Madvaliyev, Sh.Abdullayevlar³ tomonidan amalga oshirilgan. Xorij tilshunosligida esa bu yo'nalishda D.Lotte, V.Danilenko, S.Grinev, I.Derkach, K.Jons, M.Kosovalar olib borgan ilmiy izlanishlar xarakterlidir⁴.

Yurtimizda sohaviy terminlar, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminlarining lingvistik xususiyatlari o'rganilgan. Xususan, D.Kadirbekova ingliz va o'zbek tillaridagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminlarining leksikografik xususiyatlarini ochib bergan⁵. Sohaviy terminologiyaning lingvistik tadqiqi bo'yicha R.Doniyorov, N.Qosimovlar ham izlanishlar olib borishgan, ularning tadqiqotlari texnika terminologiyasi masalalariga bag'ishlangan⁶. Xorijda kompyuter terminologiyasining shakllanish prinsiplari, terminlarning lingvistik xususiyatlari, chog'ishtirma tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlar I.Komleva, A.Kutuzov, N.Koshkarova, V.Nechayevskiy, D.Lynch, A.Hafiz⁷ kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

³ Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг киёсий-типологик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 26 б.; Аҳмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 256 б.; Палуанова Х.Д. экологик терминларнинг деривацион-семантик хусусиятлари (ўзбек, қорақалпоқ, инглиз ва рус тиллари мисолида): Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 87 б.; Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. –Тошкент: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси", 2017. – 382 б.; Абдуллаева Ш. Ғазначилик соҳасида қўлланадиган молиявий-иктисодий терминларнинг чоғиштирма тадқиқи (инглиз, ўзбек, рус тиллари мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD) ... дисс., 2018. – 161 б.

⁴ Лотте Д.С. Очередные задачи технической терминологии. Т.1. – М.: "Московский Лицей", 1994. – 407 с.; Даниленко В.П. Лингвистические требования к стандартизируемой терминологии. – М.: Наука, 1972. – С.5-32; Гринев С. Введение в терминографию. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: МПУ, 1995. – 161 с.; Деркач И. В. Семантика и структура терминов в подязыке вычислительной техники: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1998. – 17 с.; Jones K. S. How much has information technology contributed to linguistics? Information technology and scholarly disciplines. Ed. J.T. Coppers, Proceedings of a British Academy Symposium (1996). – London: The British Academy, 2009; Косова. М.В. Терминологизация как процесс переосмысления русской общеупотребительной лексики: Дисс... докт. филол. наук. – Волгоград, 2004.

⁵ Кадирбекова Д.Х. Инглиз ва Ўзбек Тилларида ахборот технологиялари терминологиясининг лингвистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан ва технология, 2016. – 128 б.

⁶ Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977; Қосимов Н. Функциональные особенности аффиксов в узбекской технической терминологии: Дисс. канд. ... филол. наук. – Ташкент, 1979.

⁷ Комлева И.Л. Принципы формирования русской компьютерной терминологии: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – М., 2006. – 24 с.; Кутузов А.Б. Лексико-семантические поля в английском компьютерном сленге // Вестник Тюменского государственного университета. 2002. – № 4. – С. 137-144.; Кошкарлова, Н. Н. Структурно-семантические особенности и степень адаптации англоязычной частично ассимилированной лексики в русском компьютерном подязыке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2004. – 24 с.; Нечаевский В. О. Влияние внешних и внутренних средств номинации на вариативность единиц лексического уровня языка (на материале компьютерной терминологии в славянских языках) // Вестн. Южно-Урал. гос. ун-та. Сер.:

Yuqorida ta'kidlanganidek, mamlakatimizda AT terminologiyasining lingvistik tadqiqiga bag'ishlangan kam sonli ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Bu sohada, ayniqsa, ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan AT terminlarining leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etishga doir maxsus monografik ish bajarilgan emas. Shuningdek, tilshunosligimizda o'zbek tiliga ingliz tilidan bilvosita va bevosita o'zlashgan AT terminlarining leksik-semantik xususiyatlari, termin o'zlashishining lingvistik va ekstralingvistik omillari, AT terminlarining o'zlashish jarayonida ma'nosi torayishi va kengayishi hodisalarini aniqlash masalasi ham o'z yechimini topmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o'rtasida ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlari" bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan axborot texnologiyalari terminlarining leksik-semantik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

AT terminologik tizimida xalqaro terminlarning rivojlanish bosqichlari va yuzaga kelish tamoyillarini aniqlash;

AT terminlarining semantik tasnifini amalga oshirish;

ingliz tilidan o'zlashgan AT terminlarining o'zbek tili leksik tizimiga grafik, fonetik, semantik jihatdan moslashishini ochib berish;

ingliz tilidan o'zbek tiliga AT terminlarining o'zlashish omillarini aniqlash;

o'zbek tiliga o'zlashgan AT terminlarini tarjima qilish usullarini ochib berish;

AT terminlarini leksek-semantik jihatdan tahlilga tortish orqali ularning tarjima xususiyatlarini yoritish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan AT terminlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan AT terminlarning leksik-semantik va tarjima xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritishda tavsifiy, analiz, sintez, qiyosiy-tipologik, komponent tahlil metodlari hamda semantik tahlil usulidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan axborot texnologiyalari terminlarining bir ma'nolilik, aniqlilik, ekspressivlik, nominativlik va tizimlilik xususiyatlari, AT terminlarining terminologik maydondagi umumtizimli belgilari, terminologik birliklar majmuasi korpusining mantiqiy, semantik bog'liqligini leksik-semantik va etimologik jihatdan sintez qilish orqali ularning xalqaro kompyuter leksikasi tarkibidagi lingvistik maqomi dalillangan;

ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan axborot texnologiyalari terminlarining amalda fonologik, morfologik, sintaktik, semantik xususiyatlariga ko'ra moslashuv hodisalari negizida semantik maydonda o'zlashgan so'zlarni tasniflash orqali AT terminlarini qo'llashning fonetik, leksik, sintaktik, stilistik xususiyatlari aniqlangan;

Лингвистика. 2011. – Вып. 22 (239). – С. 63-66; Lynch Donald. A study of the lexicography of computing and information technology and its practical applications. Staffordshire University, 2004; Hafiz Albara Altaher A. Lexical borrowing (Tagrib) in Arabic computing terminology: issues and strategies. Durham University, 2015 // chrome-extension // efaidnbmnnnibpajpcglclefindmkaj/https://etheses.dur.ac.uk/11195/1/Submission.pdf?DDD36+

AT terminologiyasini qabul qiluvchi til tizimiga moslashtirish bosqichlari bilan mutanosibligi aniqlanishi orqali o'zbek tiliga o'zlashgan axborot texnologiyalari terminlarining lisoniy tejamkorlik tamoyiliga ko'ra tarjima qilish usullari samaradorlik darajasi aniqlangan;

ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan AT terminlarini leksik-semantik guruhlarini (kompyuter qurilmasi, dasturiy ta'minot, buyruqlar, internet-kommunikatsiya, multimediya, shaxsiy kompyuter turlari, o'zaro ta'sir subekti, o'lchov birliklari) modellashtirish orqali AT terminlarining umumtizimli belgilari tashqi shaklning baynalmilallik, mavzuli yo'naltirilganlik, terminologik maydondagi stilistik betaraflik, polimorfizm va ko'p funktsionallik kabi xususiyatlari isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ijtimoiy hayotning deyarli har bir sohasiga kirib borgan ingliz tilidan o'zbek tiliga bevosita va bilvosita o'zlashgan AT terminlarining tub mohiyatini to'laqonli anglash uchun AT va boshqa soha mutaxassislariga taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan AKT terminlari tahliliy materiallari asosida AKT mutaxassislari va boshqa soha vakillari uchun "Inglizcha-o'zbekcha o'zlashma AKT terminlari" elektron lug'ati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalarning axborot-kommunikatsiya terminlarining leksikologiya, tarjimashunoslik sohalarining tadqiqot ko'lamini boyitishi hamda boshqa terminologik tizimlarning lingvistik xususiyatlarini yoritishda manba sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan xulosalarning sohaviy terminshunoslik va lug'atshunoslik hamda xalqaro ma'lumot almashinuvi tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qilishi, AT terminlarining o'zlashma qatlami bo'yicha lug'atlar, o'zlashmalarni o'qitish bo'yicha o'quv qo'llanmalari, metodik tavsiyanomalarni tuzish hamda mutaxassislar tayyorlashda ahamiyatligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan axborot texnologiyalari terminlarining leksik-semantik xususiyatlarini ochib berish bo'yicha olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan axborot texnologiyalari terminlarining bir ma'nolilik, aniqlilik, ekspressivlik, nominativlik va tizimlilik xususiyatlari, AT terminlarining terminologik maydondagi umumtizimli belgilari, terminologik birliklar majmuasi yoki korpusining mantiqiy, semantik bog'liqligini leksik-semantik va etimologik jihatdan analiz va sintez qilish orqali ularning xalqaro kompyuter leksikasi tarkibidagi o'rniga hamda ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan axborot

texnologiyalari terminlarining amalda fonologik, morfologik, sintaktik, semantik xususiyatlariga ko‘ra moslashuv hodisalari negizida semantik maydonda o‘zlashgan so‘zlarning bosqichlari tahlil qilingan holda AT terminlarini qo‘llashning fonetik, leksik, sintaktik, stilistik xususiyatlari asoslanganiga oid nazariy xulosalardan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan BV-Atab-2018-568 raqamli “Elektron resurslar ma’lumotlarini himoyalash bo‘yicha qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi axborot xavflarini boshqaruvchi intellektual dasturiy tizimlarni yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 9-oktyabrdagi 89-09/3819-son ma’lumotnomasi). Natijada AT terminlarining terminologik maydondagi umumtizimli belgilarini aniqlashga xizmat qilgan;

AT terminologiyasini qabul qiluvchi til tizimiga moslashtirish bosqichlari bilan mutanosibli aniqlanishi asnosida o‘zbek tiliga o‘zlashgan axborot texnologiyalari terminlarining lisoniy tejamkorlik tamoyili bo‘yicha tarjima qilish usullariga doir xulosa va takliflardan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan “Yangi avlod o‘quv lug‘atlari va ularning mobil ilovalarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 2024-yil 29-oktyabrdagi 4432/05-2-son ma’lumotnomasi). Natijada milliy ta’lim tizimiga xorijiy tajribani internet makonidagi ingliz va o‘zbek tillaridagi AT terminlari, terminologik tarjima va matnlarni to‘g‘ri ifodalash orqali singdirishga erishilgan;

ingliz tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan AT terminlarini aniqlik kiritish, tasviriy ekvivalentlik, funksional ekvivalentlik AT terminlarining leksik-semantik guruhlari (kompyuter qurilmasi, dasturiy ta’minot, buyruqlar, internet-kommunikatsiya, multimediya, shaxsiy kompyuter turlari, o‘zaro ta’sir subekti, o‘lchov birliklari) modellashtirishga oid nazariy va amaliy xulosalardan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan “Yangi avlod o‘quv lug‘atlari va ularning mobil ilovalarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 2024-yil 29-oktyabrdagi 4432/05-2-son ma’lumotnomasi). Natijada AT terminlarining tarjima usullari sifatli lug‘atlar yaratish imkoniyatlarini oshirish va elektronlashtirish xususiyatlarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 14 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida muhokama qilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan, 1 ta darslik, 1 ta elektron lug‘at, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 3 ta, xorijiy ilmiy jurnalda 5 ta maqola, xalqaro konferensiyada 3 ta va respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida 5 ta tezis nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 127 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismda tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlangan, metodlari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ingliz va o‘zbek tillarida axborot texnologiyalari terminlarini tadqiq qilishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida AT terminlariga tavsif berilgan, ularning dunyo tillarida internatsional leksika sifatida qo‘llanishi hamda tilshunoslikda o‘rganilishi masalasi yoritilgan.

Terminologik birliklar tizimi tabiiy ravishda hosil qilingan terminlar to‘plamidir. *Terminologiya* so‘zi ko‘p ma‘noga ega bo‘lib, uning “atama-so‘zlar to‘plami” yoki “boshqa soha vakillari uchun noma‘lum atama-so‘zlar to‘plami”, “har qanday ma‘lum bilim sohasiga tegishli terminlar (tushunchalar va nomlar) to‘plami” (tibbiy terminologiya, geografik terminologiya), “terminlarning kelib chiqishi, tarkibi va bajaradigan vazifasi to‘g‘risidagi fan”, “ma‘lum bir tilda qo‘llaniladigan va ularning boshqa tillardagi ekvivalenti bo‘lgan, ma‘lum bilim sohasiga tegishli terminlarning kelib chiqishi, tarkibi va bajaradigan vazifasi to‘g‘risidagi fan” kabi ta‘riflari mavjud.

Terminologiyaning L.V.Ivina tomonidan taqdim etilgan “Terminologiya – muayyan faoliyat sohasiga oid maxsus nominatsiyaning, uning izomorf tizimi tushunchasi va kommunikativ talablariga xizmat qiladigan birliklari to‘plami”⁸ ta‘rifi ahamiyatli. Chunki sohaviy terminologiyani tashkil qiladigan terminlar tizimi ko‘p hollarda faqat shu sohaga tegishli bo‘ladi. Shuningdek, tilda shunday terminlar mavjudki, ular kommunikatsiya jarayonida bir sohadan boshqa sohaga ko‘chadi. Masalan, *tejash*, *tejamkorlik* – iqtisodiyot sohasiga oid, *lisoniy tejamkorlik* tilshunoslik sohasi termini.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminida izoh jihatidan maxsus obyekt va jarayonlarni belgilovchi so‘z yoki so‘z birikmasi, mazmun jihatidan esa kasbiy kommunikatsiyani ta‘minlashga xizmat qiladigan kompyuter bilimlariga xos ilmiy yoki texnik tushuncha, leksik birliklar anglashiladi.

Kommunikatsiya – “ijtimoiy subyektlar yoki moddiy obyektlar o‘rtasida semiotik (belgili) tizim yordamida amalga oshiriladigan ma‘lumot almashinuvi bo‘lib, bunda belgi ijtimoiy axborotning moddiy tashuvchisi vazifasini bajaradi”⁹.

Madaniyatlararo kommunikatsiya bu – “madaniyatlarning bevosita o‘zaro ta‘siri jarayonidir”¹⁰. Kommunikatsiya nafaqat jamiyat a‘zolari o‘rtasida “odam – odam” munosabatida, balki odam va personal kompyuter o‘rtasida “odam – kompyuter” yoki “odam – kompyuter – odam” munosabatida ham yuz berishi mumkin. Tadqiqotchilarda

⁸ Ивина Л. В. Лингво-когнитивные основы анализа отраслевых терминосистем (на примере англоязычной терминологии венчурного финансирования). – М.: Академический Проект, 2003. – С.27.

⁹ Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах. – М.: Высш. школа, 1987. – С.12-13.

¹⁰ Стернин И.А. Коммуникативное поведение в структуре национальной культуры // Этнокультурная специфика языкового сознания / Под ред. Н.В. Уфимцевой. – М.: Институт языкознания РАН, 1996. – С. 97.

“odam – kompyuter – odam” munosabatidagi kommunikatsiya katta qiziqish uyg‘otadi. Bunda kompyuter muloqotni ta’minlovchi qo‘shimcha texnik vosita rovida ishtirok etadi, elektron matnlarda qo‘llanuvchi AT terminologiyasi esa bu turdagi kommunikatsiyaning muhim sharti hisoblanadi.

Axborot texnologiyasi termini tizimi mantiqiy, semantik va boshqa munosabatlar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan axborot texnologiyalar bilim sohasi tushunchalarining nomlanishini ta’minlovchi, terminologik birliklar majmuasi yoki korpusi sifatida ifodalanadi.

Rasmiy tuzilma nuqtayi nazaridan AT terminlari bir komponentli va ko‘p komponentli terminlarga bo‘linadi. Bir komponentli terminlarni so‘zni o‘z asos qismi bilan mos keladigan oddiy so‘zlar (*portal, paket, server, xost, shlyuz*), asosi affiksli bo‘lgan oddiy yasama so‘zlar (*dekodlash, defragmentatsiya, qaytadan yuklash, antivirus, vizualizatsiya*) hamda bir necha o‘zakli morfemalardan tashkil topgan murakkab so‘zlar (*videoxotira, videokanal*)ga ajratish mumkin.

Ko‘p komponentli terminlar poliverbal terminlarga bo‘linadi: *bosh sahifa* (home page) – “saytning asosiy sahifasi, boshlang‘ich sahifasi”, *tez sur‘atda qayta yuklash* (warm reboot) – “quvvatini o‘chirmagan holda tizimni dasturiy qayta yuklash”, *quvvat bloki* (power unit) – “kompyuter tugunlarini elektr energiyasi bilan ta’minlash uchun mo‘ljallangan qurilma kabilar hamda termin-qisqartmalardan iborat: PDF, JPG, LCD.

Har qanday soha terminologiyasi singari AT terminologiyasi ham ma’lum bir tarzda tizimli tashkil etilgan bo‘lib, shakllanishi jihatidan murakkab hisoblanadi, uning tuzilmasi turli xil asosda ajratiladigan quyi tizimlarni o‘z ichiga oladi. ATning yadrosi “kompyuter” tushunchasi bo‘lgan maxsus semantik tuzilmaga ega. ATning semantik tuzilmasi tadqiqida tarkibiy tahlilni qo‘llagan holda, ingliz va o‘zbek tillarida AT terminlarini to‘qqizta leksik-semantik guruhlariga ajratamiz:

- **kompyuter qurilmasi** (input and output storage devices). Bu guruhga mansub AT terminlari kompyuterning ichki va tashqi qurilmasini tavsiflovchi birliklarni o‘z ichiga oladi. Masalan, **ingliz tilida:** *keyboard, memory card, monitor, mouse, microprocessor, port*; **o‘zbek tilida:** *klaviatura, karta xotirasi, monitor, sichqoncha, mikroprosessor, port*. Arxisema: *qurilma* (device);

- **dasturiy ta’minot** (software). Bu guruhga mansub AT terminlari kompyuter dasturlarining ishlashini tavsiflovchi birliklarni o‘z ichiga oladi. Masalan, **ingliz tilida:** *distribution, applet, driver, application*; **o‘zbek tilida:** *taqsimot, applet, drayver, ilova*. Arxisema: *dastur* (program);

- **buyruqlar** (command). Ushbu guruhga mansub AT terminlari foydalanuvchi topshirig‘i bo‘yicha kompyuter tomonidan bajariladigan harakatlarni tavsiflovchi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, **ingliz tilida:** *paste, copy, save, delete, insert, scroll, download*; **o‘zbek tilida:** *joylashtirish, nusxalash, saqlash, o‘chirib tashlash, aylantirish, yuklash*. Arxisema: *harakat* (action);

- **internet-kommunikatsiya** (Internet communication). Mazkur guruhga mansub AT terminlari internet-muloqotni tavsiflovchi birliklarni o‘z ichiga oladi. Masalan, **ingliz tilida:** *home page, forum, site, chat, blog, link, buffer, portal*; **o‘zbek tilida:** *bosh sahifa, forum, sayt, chat, blog, havola, bufer, portal*. Arxisema: *kommunikatsiya* (communication);

- **multimedia** (multimedia). Bu guruhga mansub AT terminlari bir xil nomli arxisema bilan kompyuter yordamida turli signallar, ma'lumotlar almashish vositasi va usullarini integratsiyalash, qayta ishlash, sinxron ravishda ko'paytirish imkonini beruvchi birliklardan iborat. Masalan, **ingliz tilida:** *animator, animation, visualization, hologram*; **o'zbek tilida:** *animator, animatsiya, vizualizatsiya, gologramma*;

- **shaxsiy kompyuter turlari** (PC types). Ushbu guruhga mansub AT terminlari shaxsiy kompyuterning mavjud turlarini belgilaydigan otlarni o'z ichiga oladi. Masalan, **ingliz tilida:** *personal computers, notebook, netbook, laptop, minicomputer, microcomputers (micros), analog computers*; **o'zbek tilida:** *shaxsiy kompyuter, noutbuk, netbuk, portativ kompyuter, kichik-kompyuter, o'xshash kompyuterlar*;

- **o'zaro ta'sir subyekti** (subject of interaction). Mazkur guruhga mansub AT terminlari kompyuterda ishlaydigan har xil subyektlarni nomlaydigan birliklardan iborat. Masalan, **ingliz tilida:** *operator, computer specialist, spammer, hacker, user, moderator, programmer*. **O'zbek tilida:** *operator, kompyuter mutaxassisi, spammer, xaker, foydalanuvchi, moderator, dasturchi, navigator*. Arxisema: *subyekt* (subject);

- **o'lchov birliklari** (unites, sizes, format). Bu guruhga mansub AT terminlari ma'lumotlarni uzatish tezligi, hujjatlar o'lchamlari, formatlari o'lchov birliklarini anglatadigan birliklarni o'z ichiga oladi. Masalan, **ingliz tilida:** *Mb, Gb, GHz, MHz*; **o'zbek tilida:** *kbit/s, Mbit/s, gigabayt, megabayt*.

AT terminlarining umumtizimli belgilari tashqi shaklining baynalmilallik, mavzuli yo'naltirilganlik, terminologik maydondagi stilistik betaraflik, polimorfizm, ko'p funkcionallik kabi xususiyatlarga egaligi bilan boshqa soha terminologiyasidan farq qiladi.

XX asrda texnologiyaning rivojlanishi, siyosiy, ijtimoiy hayotning o'zgarishi sur'ati juda tezlashishi sababli xalqaro so'z va so'z birikmalarining o'sish sur'ati ham oshib bordi.

O.Axmanovanning "Lingvistik terminlar lug'ati"ga ko'ra, *internatsionalizm* yoki *xalqaro so'z* ko'plab tillar fondiga tegishli, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan so'z bo'lib, dunyo tillari va boshqa tillarda ham qo'llanadi¹¹. Demak, xalqaro so'zlar tarixiy rivojlanish natijasida ko'plab tillarda uchrashi va xalqaro so'zlar maqomini olishi mumkin.

Bugungi kunda ko'plab AT terminlari xalqaro terminlarga aylangan. Hattoki *computer* so'zining o'zi ham internatsional so'z sanaladi. Kompyuter klaviaturasidagi buyruqlarni anglatuvchi *time, date, print, files* terminlari ham shu guruhga mansub.

Shunisi xarakterliki, kompyuter terminologiyasi terminlarining alohida internatsionalizmlar guruhi grafik belgilar bilan ifodalanadi. Masalan: *displey, monitor, onlayn, veb* va boshqalar.

Axborot-kommunikatsiya terminlarining xalqaro terminlar mavqeyiga erishishi, ayniqsa, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida kuzatildi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning har bir sohasiga zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi va ko'plab faoliyat turlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida amalga oshirilishi bunga asosiy sabab bo'ldi.

¹¹ Ahmanova O.S. Glossary of linguistic terms. – Moscow, Russia, 2004.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan axborot texnologiyalari terminlari xususida”** deb nomlangan. Bu bobda “o‘zlashma” terminining mohiyati ochib berilgan, so‘z o‘zlashtirishning o‘zbek tili leksikasida tutgan o‘rni, AT sohasida o‘zlashmalarning qo‘llanishi, ingliz tilidan o‘zlashgan AT terminlarining o‘zbek tili leksik tizimiga grafik, fonetik, semantik moslashishi borasida so‘z yuritilgan.

Ma’lumki, har bir tilda o‘z qatlamga oid birliklar bilan birga, o‘zlashgan qatlam birliklari ham mavjud. O‘z qatlam so‘zlari o‘sha tilning asl so‘zlari hisoblanadi. O‘zlashgan qatlam esa tarixiy taraqqiyot natijasida turli xil tashqi va ichki omillar ta’sirida shu tilga boshqa chet tillaridan kirib kelgan so‘zlar yig‘indisi hisoblanadi.

Rus ensiklopedik lug‘atida tildagi o‘zlashmalarga “chet tili belgisi (so‘z, morfema, sintaktik tuzilish va boshqalar) qoidalariga rioya qilgan holda, til aloqalari natijasida bir tildan boshqasiga, shuningdek, bir til belgilarining boshqa tilga o‘tish jarayoni” deb ta’rif beriladi¹². Demak, o‘zlashmalar bir tildan boshqasiga o‘tganda o‘zlashtirayotgan tilning morfemik, sintaktik, fonetik xususiyatlarini o‘zida jamlaydi.

U.Vaynrayx “Monolingualizm va ko‘p tillilik” nomli maqolasida “har qanday tilning lug‘at tarkibi doimiy ravishda o‘zgarib turadi, ba’zi so‘zlar nutqda ishlatilmay qoladi va, aksincha, boshqalari esa muomalada bo‘ladi. Leksik birliklarning oson tarqalishiga asosiy sabab so‘z o‘zlashish jarayonida tillar orasida yetarli darajada minimal aloqa o‘rnatilishidir”¹³.

Darhaqiqat, so‘z qabul qilishda tillar orasida aloqa o‘rnatilishi muhim. Bu holat o‘zlashmaning oson o‘zlashtirilishiga yo‘l ochadi. Fikrimizcha, boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish tillarning rivojlanishiga, lug‘at boyligini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu barcha tillarda so‘z o‘zlashtirishning ahamiyatli ekanligini anglatadi.

Ma’lumki, AT jamiyat hayotiga kirib kelgan dastlabki davrlarda tizim terminologiyasi faqat kompyuter texnologiyalari va informatikaga doir juda ixtisoslashgan lug‘at tarkibiga ega edi. Keyinchalik esa ushbu sohaning terminlari sezilarli darajada kengaydi. Dastlab AT terminlari faqat soha vakillari nutqida ishlatildi, keyinchalik esa kompyuter texnikasi bilan bog‘liq bo‘lgan terminlar jamiyatning barcha sohalariga kirib bordi. Jamiyatda, ayniqsa, *kompyuter*, *display*, *fayl*, *interfeys*, *printer* kabi terminlar nihoyatda ommalashdi.

O‘zga tillardan bir tilga so‘z o‘zlashishida, odatda, ekstralingvistik (nolisoniy) va lingvistik omillar muhim rol o‘ynaydi. So‘z o‘zlashtirishning ekstralingvistik omillariga quyidagilar kiradi:

- 1) global kompyuterlashtirish;
- 2) subyektning ijtimoiy mavqeyidagi o‘zgarishni namoyish qilishiga zarurat tug‘ilishi;
- 3) asl yoki ilgari o‘zlashtirilgan yohud mahalliyashtirilgan so‘zga nisbatan xorijiy so‘zga e’tiborning yuqori bo‘lishi;
- 4) ingliz tilini biladigan va bilishni istaganlar sonining ko‘payishi (maktablarda, universitetlarda ingliz tilini o‘rgatish, turli kompaniya va muassasalarda ingliz tilini o‘rganish kurslarini o‘tkazish);

¹² Лингвистический энциклопедический словарь / Под ред. В.Н. Ярцевой. 2-е изд., доп. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. – 709 с.

¹³ Вайнрайх У. Одноязычие и многоязычие // Новое в лингвистике. – М., 1972. – Вып. 6. – С. 25-60.

5) boshqa mamlakat madaniyatini o‘rganishni istaganlar sonining ko‘payishi (talabalar almashinuv dasturlari “Work and Travel USA”, “Work and Study Canada” va boshqalar) kabilar.

So‘z o‘zlashtirishning ichki sabablari qisman tashqi omillar bilan bog‘liq. Tilning ichki xususiyatlariga ko‘ra so‘z o‘zlashtirish omillariga quyidagilar kiradi:

1. So‘z o‘zlashtiruvchi tilda yangi predmet, hodisani nomlash uchun ekvivalent so‘zning yo‘qligi, ushbu predmet, hodisa nomini professional aloqa tilida ixtisoslashtirish zarurati yuzaga kelganligi (*kompyuter, skaner, brovzer, provayder, netbuk, meilboks* kabilarning o‘zbek tilida ekvivalentligi yo‘qligi);

2. Birikma shaklidagi nom o‘rniga bitta so‘z shaklidagi nomni ishlatish, bu orqali til vositalarini tejashga moyillik (*ko‘chma kompyuter o‘rniga noutbuk* terminidan foydalanish);

3. Chet el stilistik sinonimlarining paydo bo‘lishiga olib keladigan ekspressivlik va evfemizmga moyillik (*Netiquette – Etiquette in Internet; botnet – robot network; netizen – citizen of the net*);

4. Bir-biriga o‘xshash belgilar bilan birlashtirilgan ketma-ketlikni tashkil etadigan bir xil turdagi so‘zlarni qabul qiluvchi tilida kuchaytirish, ya’ni morfemalar va so‘z yasovchi belgilar (*Cyber-, Hyper- konfiguratsiyalari*) o‘zlashtiriladi.

AT terminlarini ingliz tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashtirish usullari quyidagicha:

1) to‘g‘ridan-to‘g‘ri termin o‘zlashtirish. To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirishda so‘zlar o‘zbek tiliga moslashtirilmagan (*delete, escape, edit*) va moslashtirilgan (*cursor – cursor, interfeys – interface, modem – modem, autentifikatsiya – authentication, kartridj – cartridge*) holatda qabul qilinadi;

2) kalkalash usuli orqali termin o‘zlashtirish: *interfeys – foydalanuvchi va dastur o‘rtasidagi muloqot vositasi, Big Data – katta hajmdagi ma’lumotlar to‘plami, Blockchain – ma’lumotlarni xavfsiz va o‘zgartirilmaydigan tarzda saqlash texnologiyasi*;

3) yarim kalka usulida termin o‘zlashtirish: *utilitlar (utility – kompyuter dasturi ta’minot tizimida yordamchi dastur)*;

4) ekzotik terminlarni aynan o‘zlashtirish usuli: *kseroks, skaner, adapter* kabilar;

5) kompozitsiya usulida termin o‘zlashtirish: *tachpad (touchpad – “sensorli panel”), palmtop (palmtop – “cho‘ntak kompyuteri)*.

XX asrning 80-yillari oxirlariga kelib, o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida, shuningdek, ensiklopedik lug‘atlarda *monitor, klaviatura, sichqoncha* kabi kompyuter terminlari o‘rin oldi. Xarakterlisi, bu davrda ushbu terminlar nokasbiy muloqot vaziyatida ham tobora faollashib bordi. Bunday so‘zlar, shuningdek, oddiy xalqning kundalik muloqotida ham keng qo‘llanila boshladi. Masalan, *ficha* (ing. *feature* – o‘ziga xoslik, fe‘l-atvor, belgi, xususiyat, texnik tasnif, o‘lcham) so‘zi “u yoki bu hodisaning g‘ayrioddiy belgisi” ma’nosini anglatadi. Ushbu so‘z, odatda, “fishka” nomi bilan ham yuritiladi. *Ficha* deganda, shuningdek, foydalanuvchilarning diqqatini jalb qiluvchi va unda ijobiy reaksiya uyg‘otuvchi biror bir dasturiy ta’minot yoki uning imkoniyatlaridagi qandaydir o‘ziga xoslik ham tushuniladi. Mazkur termin allaqachon AT sohasi terminologik tizimidan oddiy so‘zlashuv tiliga ko‘chgan. Masalan: *Panelni kuzatyapman-da, mashinaning eshiklari ochiq holatda*

yurmaslikka o'rgatishganini bilyapman, to'g'ri-da, balki haydovchi anqovlanib, eshikni yopishni unutib qo'yar. Ana shunaqangi ajoyib **ficha**, bunaqasini avval uchratmaganman. (Jurnaldan)

Tilshunoslar so'z o'zlashtirish jarayonida qabul qiluvchi til tizimida yuz beradigan o'zgarishlar haqida fikr yuritishar ekan, bu jarayonni turlicha nomlashadi. Masalan, *assimilyatsiya* (K.L.Yegorova, M.V.Brofman, D.S.Lotte, A.Mayorov), *adaptatsiya* (G.T.Xuxuni, L.Blumfeld), *o'zlashtirish* (A.A.Reformatskiy, L.P.Yefremov, O.P.Sologub), *joriy qilinishi* (D.S.Lotte), *amalda qo'llanilishi* (S.V.Grinev) kabilar. Xususan, A.A.Gorbachevskiyning fikricha, "adaptatsiya barcha til birliklari, fonemalar, morfemalar, leksemalar, jumlar turli til sathlarida namoyon bo'ladi. Til birligi atrofida joylashgan birliklarga moslashib, o'z shaklini o'zgartiradi, shu tarzda u yoki bu shaklda amalga oshirilgan – allafon, allamorf, so'z shakli, gapning grammatik shakliga mos keladigan kontekstga moslashadi"¹⁴. Demak, AT terminlarini qabul qiluvchi til tizimiga moslashtirish – bu barcha til sathlarida ushbu terminning o'zgarishi sodir bo'ladigan bosqichli jarayondir.

AT terminlarining o'zbek tiliga o'zlashishida bu tilning lingvistik xususiyatlariga moslashuvi grafik, fonetik, semantik va so'z shakllari tizimida kuzatiladi. AT terminlarini grafik jihatdan o'zlashtirishda inglizcha so'z grafik qobig'ining qayta kodlashtirilishi sodir bo'ladi. Ya'ni o'zlashgan so'zning grafik tasviri o'zbek tilining grafik vositalari yordamida tasvirlanadi. Ushbu jarayon ikkita asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi: grafik qayta o'zlashgan va grafik qayta o'zlashmagan.

Birinchi holatda chet tilida yozish tizimiga ega bo'lgan so'zning tashqi ko'rinishi o'zlashadi: *Adobe Photoshop, Adobe Reader, Excel, Winamp*. Ikkinchi holatda quyidagilar yuz berishi mumkin:

1) so'zning tashqi ko'rinishi mazmunini saqlab qolgan holda o'zlashtirish (qabul qiluvchi til vositalari yordamida so'z grafik qobig'ini qayta kodlash bilan). Masalan, *rendering* (rendering) termini "grafik ko'rinishni yoki uch ulchovli obyektning tavsifiga ko'ra raqamli shaklni qurish va namoyish qilish jarayoni"ni anglatadi. Bu holda transliteratsiya haqida gap ketmoqda (transliteratsiya til alifbosiga kirmagan qo'shimcha belgilar va harflardan foydalanmasdan qabul qiluvchi tilning ekvivalent sxemalari bilan chet tilidan kirgan so'zning grafik ko'rinishini o'zlashtirishdir)¹⁵;

2) so'zning tashqi ko'rinishini unga yangi ma'no qo'shgan holda o'zlashtirish. Bunday o'zlashtirish jarayonida qabul qiluvchi til so'zning mazmunini emas, balki chet tilidagi so'z shaklini olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Agar bu jarayonga lingvistik belgi nuqtayi nazaridan qaralsa, u holda manba tilida va qabul qiluvchi tilda belgining tashqi ko'rinishi shartli ravishda saqlanib qoladi, belgi mazmuni qabul qiluvchi tilda o'zgaradi va bu jarayon semantik, pragmatik va sintaktik tarkibiy qismlarning o'zgarishi bilan birga sodir bo'ladi;

3) so'zning tashqi ko'rinishi manba tilidagi talaffuzi asosida o'zlashtiriladi (amaliy transkripsiya). Masalan, *insayder* termini ingliz tilida *insider* [in'saide]

¹⁴ Горбачевский А.А. Оригинал и его отражение в переводе. – Челябинск, 2001. – 202 с.

¹⁵ Крысин Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке. – М.: Наука, 1968. – 206 с.

shaklida bo‘lib, “ishonch va vakolatga ega bo‘lgan inson, shu inson orqali ma’lumot tarqalishi yuz berishi”ni anglatadi;

4) so‘zning shaklini saqlamasdan mazmunini o‘zlashtirish (semantik o‘zlashtirish). Masalan, Cloud Computing termini uzbek tilida bulutli hisoblash, Firewall (olovli devor) tarmoq xavfsizligini ta’minlash uchun ishlatiladigan texnologiya.

AT terminlarining o‘zbek tiliga o‘zlashishida fonetik jihatdan moslashuvda leksik birlikning tovush tasviri manba tilidan olinadi va uning tovushlari tarkibida o‘rin almashinuv ro‘y beradi. Tilshunoslar tovush almashtirishning quyidagi turlarini ajratadilar:

– tovush yaqinlashuvi – ikki yaqin tovushni bir-biriga muntazam almashtirish asosida amalga oshiriladi (masalan, o‘zbek tilida uzun va qisqa unilarning almashinuvi): *engineering – injiniring* (bu ko‘proq o‘zbek tiliga boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarda kuzatiladi);

– tovush divergensiyasi – bir tovushni ikkita tovush bilan aks ettirish (*xaker* (< *hacker*, bunda “k” tovushi “ck”ga almashadi);

– oddiy substitutsiya (almashtirish) – manba tilining bir tovushini o‘zlashtirilayotgan tilning bir xil tovushi bilan o‘zgartirish: *slider – slayder*.

AT terminlarining o‘zbek tiliga semantik moslashuvi quyidagi bosqichlarda amalga oshadi. Birinchi bosqichda o‘zlashtirilayotgan so‘z qabul qiluvchi tilga kirib keladi. Rasmiy jihatdan ushbu so‘z qabul qiluvchi tilning fonetik, grafik vositalariga moslashtiriladi. Bu bosqichda xorijiy so‘zlarning semantik moslashuvi leksik va semantik o‘zgaruvchanlik bilan kechadi, bu esa so‘zning ma’nosi hali to‘la barqarorlashmaganligini, ma’nosi oldinroq o‘zlashtirilgan so‘zlar orasida yetarlicha aniq bo‘lmashligini ko‘rsatadi. Kompyuter terminlarining o‘zgaruvchanligi ularning leksik va grammatik o‘zgaruvchanligida namoyon bo‘ladi.

Leksik o‘zgaruvchanlik: a) eski va yangi o‘zlashtirilgan so‘zlarning parallel ishlatilishi (semantik dubletlar): *monitor – displey, sovutish tizimi – kuler*; b) eski va yangi o‘zlashtirilgan so‘zlarning sinonimligi (ko‘pincha o‘zakdosh so‘zlar, yangisi oldingisi bilan “kesishishni” o‘z ichiga oladi): *demonstratsion versiyasi – demoversiya*.

Dissertatsiyaning **“Ingliz tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan axborot texnologiyalari terminlarining leksik-semantik tahlili va tarjima xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida ingliz tilidan o‘zbek tiliga AT terminlarining o‘zlashish omillari, terminlarni amalda qo‘llashdagi qiyinchiliklar, terminlarning o‘zbek tiliga o‘zlashish jarayonida ma’nosi torayishi va kengayishi, AT terminlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish xususiyatlari tadqiq qilingan.

O‘zbek tili leksikasiga AT terminlari rus tili orqali va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ingliz tili orqali kirib kelgan. Shuning uchun aksariyat AT terminlarida ingliz tili leksikasiga xos belgilar ham mavjud.

AT terminlarini o‘zlashtirishning ekstralingvistik omillari sifatida, odatda, quyidagilar e’tirof etiladi:

- o‘zgaruvchan jamiyatda subyektning rolini o‘zgartirish (EHM - kompyuter);
- davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy aloqalarning rivojlanishi;
- jahon miqyosida globallashtirish va kompyuterlashtirish jarayoni;

- mamlakatlarning bir-biriga madaniy ta’siri, xususan, urf-modaning xorijiy madaniyatga ta’siri;
 - ijtimoiy qatlamlarning lingvistik madaniyatni, yangi so‘zlarni qabul qilish shartlari;
 - boshqa davlatlar madaniyatining muayyan ijtimoiy qatlamlarda kengayishi;
 - ingliz tilini o‘rganib, shu tilda gaplashadiganlar sonining ko‘payishi (hozirgi kunda ingliz tili barcha ta’lim bosqichlarida o‘rgatiladi);
 - xorijiy til qatlamida internatsional so‘zlarning paydo bo‘lishi.
- AT terminlarini o‘zlashtirishning lingvistik omillariga quyidagilar kiradi:
- qabul qiluvchi tildagi asl so‘zning polisemiyasi va omonimiyasini yo‘q qilish tendensiyasi;
 - tushunchani batafsil bayon qilish zaruriyati;
 - qabul qiluvchi tilida ijobiy/salbiy konnotativ ma’nolarni ifodalash;
 - tushunarli bo‘lishi uchun qabul qiluvchi tilda o‘xshash bo‘lgan so‘zlarning shakllantirish tendensiyasi;
 - yangi narsa, tushuncha yoki hodisaning nominatsiyasi;
 - qabul qiluvchi tilida tegishli tushunchaning mavjud emasligi;
 - ekspressivlik tamoyiliga ko‘ra o‘zlashma so‘zning stilistik ta’siri.

D.S.Lotte, shuningdek, lug‘aviy sabablarga ko‘ra tavsiflangan iboraning o‘rniga bitta kerakli so‘zni ishlatish tendensiyasini nazarda tutadi: *“taqdimotda ramkalar ketma-ketligi”* – *slayd-show*; *“tarmoq paketli analizatorlari”* – *sniffers*; *“keraksiz elektron pochta reklama xabari”* – *spam* va boshqalar¹⁶.

Respublikamizda keyingi 10 yillikda terminologiya masalalariga bag‘ishlangan tadqiqot ishlarining ko‘lami sezilarli darajada ortdi. Bu tadqiqotlarda termin, terminologiya, terminologik tizim kabi masalalar o‘rganildi va aksariyatida terminga termindek munosabatda bo‘lish va uni o‘z holicha o‘zlashtirish va til leksik tizimiga moslashtirish g‘oyalari ilgari surildi. Shuning natijasida nafaqat AT sohasida, balki boshqa sohada ham o‘zlashma terminlar soni ortib bordi. Shu kabi holatlar ham inglizcha AT terminlarining o‘zbek tili leksik tizimiga moslashishi omillaridan hisoblanadi.

H.Dadaboyev “Zamonaviy o‘zbek leksikografiyasi va terminologiyasi” nomli risolasida bugungi kundagi o‘zbek soha terminologiyasi xususida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi:

1) “xorijiy tillardan shiddat bilan kirib kelayotgan fan, texnikaga doir terminlarni qanday tarzda qabul qilish, o‘zlashtirish xususida har xil yondashuvlar ko‘zga tashlanadi;

